

Xulosalar. Olib borilgan tadqiqotlarimizga ko'ra, turli hudud va xo'jalik yuritish shakllarida arashan, jaydari va qorako'l zotlariga mansub qo'ylarning 12,5 foizi diktiokulyoz bilan zararlanganligi qayd etildi. Qo'ylarning diktiokulyoz bilan zararlanishi Toshkent viloyatida hisori, arashan va jaydari zotli qo'ylarda 31,4 foizni, Samarqand viloyatida jaydari zotli qo'ylarda 9,1 foizni, Buxoro va Navoiy viloyatida qorako'l zotli qo'ylarda mos ravishda 9,3 va 4,0 foizni tashkil etdi. Tadqiqotlarimizda qo'ylarning diktiokulyoz bilan turlicha zararlanganligi qo'ylarning saqlash, oziqlantirish, boqish, gelmintozlarga qarshi davolash va profilaktik tadbirlariga, shuningdek, hududlarning iklimiga, yil fasliga, qo'ylar yoshiga, zotiga va ularning kasalliklarga tabiiy chidamliligiga bog'liq deb hisoblaymiz.

Tadqiqotlar natijasida olingan ma'lumotlarga kelgusida qo'ylar diktiokulyozi tarqalishini kengroq o'rganish bilan birga kasallikka qarshi davolash va profilaktik chora-tadbirlarini takomillashtirish zarurligini bildiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. И.Х. Иргашев “Гельминты и гельминтозы каракульских овец” Тошкент-1973 йил 14-53б.

2. З.Холикова “Диктиокаулёз овец в Узбекистане” (клиника и потоморфологическая картина при экспериментальном диктиокаулёзе каракульских овец) автореф. дис. канд. вет наук. Самарканд-1969. с.15-20.

3. А. О. Орипов, А. Ф. Гофуров, Н. Э. Йўлдошев, Ш. А. Джаббаров, Р. Б. Давлатов, М. Э. Гоипова “Қишлоқ хўжалик ҳайвонларининг паразитология ва инвазион касалликлари” Дарслик, Тошкент-2023 йил 52-158б.

BUZOQLAR KINDIK DABBASINI XIRURGIK YO'L BILAN DAVOLASH

Narziyev B.D.¹, Bekmuratov K.R.².

¹Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

²Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali

Annotatsiya. Ushbu maqolada kindik dabbasi bilan kasallangan buzoqlarni xirurgik davolash (operatsiyagacha) va davolashdan keyingi ma'lumotlari, klinik belgilari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Tajribalar 6 bosh 1 oylikdan 8 oylikgacha bo'lgan kindik dabbasi guzatilgan buzoqlarda olib borildi, klinik belgilari kuzatib borildi.

Kalit so'zlar. kindik dabbasi, xirurgik davolash, buzoq, tug'ma, ortirilgan, konservativ, anatomik,

Kirish. Respublikamizda mustaqillik yillarida charvachilikni sanoat asosiga o'tkazilishi, fan va texnikaning zamonaviy yutuqlari chorvachilikni sezilarli darajada oshirish uchun yangi imkoniyatlar eshigini oshdi. Bugungi kunda veterinariya amalyotida yuqumli va yuqumsiz kasalliklarning oldini olish muhim ahamiyatka ega. Chorvachilikda amaliy faoliyat natijalari veterinariya fanining

yutuqlari bilan belgilanadi. Respublika aholisini chorva mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida uning barcha yo'nalishlari, shu jumladan yurtimizda qoramollar sonini ko'paytirish va kasalliklariga qarshi kurashish ustuvor vazifa etib belgilangan.

Buzoqlar orasida kindik dabbasi dunyoning diyarli barcha davlatlarida uchrab, qoramolchilik fermer xo'jaliklariga iqtisodiy zarar yetkazib kelmoqda. Qoramollarda dabbalarning oldini olish, ertachi tashxis qo'yish, davolash bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan va yaxshi natijalarga erishilgan.

Mavzuning dolzarbligi. Kindik homila va onalik aloqasining qoldig'idir. Tug'ilishdan oldin kindik venasi manba bo'lib xizmat qiladi homila uchun kislorodli qon. Juftlashgan kindik arteriyalari ichki yonbosh arteriyasining shoxlari bo'lib, chiqindilarni olib yuradi (platsentaga materiallar va qon) (Rings, 1995) [7].

Buzoqlar orasida kindik dabbasiga tashxis qo'yish, boshqa kasalliklardan farqlash, davolash va davolashdan keyingi molajalarni o'tkazish muhim ahamiyatga ega. Buzoqlar ishki organlari qorin devorining zaif joyidan chiqib ketganda anormal anatomik yoki tasodifiy ochilishdan bo'lishi mumkin, bunda ishki organlar o'zining fiziologik funksiyasini to'liq bajarmaydi va bu dabba sifatida tavsiflanadi [1,6].

Buzoqlarda kindik dabbasi quydagisha bo'linadi: a) tug'ma patologiya (herniae congenitae) homila davrida noto'g'ri rivojlanish ta'sirida anatomik teshiklarni (kindik, chov) kengayib qolishidan, b) ortirilgan (herniae acquisitae) mexanik shikastlanish (kindik atrofi mushaklarning haddan tashqari jismoniy kuchlanishi) [4, 8] Dabbaning daslab teshigi va dabba xaltasi hosil bo'ladi, keyinchalik jismoniy kuch natijasida ichki organlar churra xaltasiga kiradi [5].

Yangi tug'ilgan buzoqlarda qonni tashuvchi kindik tomirlarining qoldiqlari (homila va uning onasi o'rtasida) ichida faqat mayda qoldiqlar qolguncha qisqaradi va vaqt o'tishi bilan bu qoldiqlar sorilib ketadi [3].

Ko'pincha kindik yoki kindik qoldiqlarining infeksiyasi atrof-muhit ta'siri natijasida neonatal davrda yuzaga keladi. Buzoq organizmidagi va atrof-muhitdagi infeksiyalar (*Arcanobacterium pyogenes*, *Staphylococcus*, *Streptococcus* va *Escherichia coli*) kindik dabbasini keltirib shiqaradigan sabablardan biri hisoblanadi [4].

Kindik dabbani jarrohlik yo'li bilan tuzatish asosan ikkita usul, ya'ni herniorrafiya va hernioplastika orqali amalga oshirilishi mumkin. Ochiq herniorrafiya veterinariya davolashning eng keng tarqalgan usuli bo'lsa-da, gerniorrafiyadan keyin takrorlanish uchraydi va yil davomida kuzatiladi [9]. Veterinariya ilmiy izlanivchilari bugungi kunda hernioplastika usulini takomillashtirish ustida ilmiy ishlar olib bormoqtalar.

Tadqiqotning maqsadi. Tadqiqotimizning asosiy maqsadi Qoraqalpog'iston sharoitida buzoqlar orasida kindik dabbasining uchrashi va xirurgik davolashni anatomo-topografik asoslashdan, shu jumladan;

-xirurgik davolashga zamonaviy yondashish.

-fermer va aholi qaramog'idagi buzoqlarda kindik dabbasi sababli kelib shiqadigan iqtisodiy zararni kamaytirish

-buzoqlar orasida kindik dabbasini keltirib chiqaruvshi sabablarining oldini olish shoralarini ishlab shiqish.

Material va usullar. Tadqiqotlar Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali “Veterinariya meditsinasi va farmakologiyasi” kafedrasiga qarashli Oquv tajriba klinikasida, Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududdagi Xo‘jayli tumani Amudaryo MFY dagi “Mo‘ynoq kelajagi bunyodkorlari” va Amudaryo tumani Beshtom MFY dagi “Sardorbek-Abrorjon” chorva fermer xo‘jaliklari va aholi qaramog‘idagi kindik dabbasi bilan kasallangan buzoqlarda olib borildi. Kindik dabbasi kuzatilgan 6 bosh 1 oylikdan 8 oylikgacha bolgan buzoqlarda o‘tkazildi. Tadqiqotlarda klinik, xirurgik, anatomo-topografik va ushrash darajasini qiyoslash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotlar natijalari va ularning tahlili. Tadqiqotlarimiz davomida 6 bosh 1 oylikdan 8 oylikgacha bolgan buzoqlar dastlab klinik tekshiruvlardan o‘tkazildi. Kasal hayvonlarda klinik belgilari bir xil bo‘lib: kindik sohasida shishning paydo bo‘lishi, o‘shidan orqada qolish, palpatsiya paytida shishning elastik va yumshoq, biroz og‘riqli, ishtahaning pasayishi kabi belgilar kuzatildi. Buzoqlarni ortiqsha oziqlantirish natijasida kindik haltasi kattalashadi. Dabba haltasining katta bo‘lishi natijasida ishak meteorizm kuzatiladi. Ko'pgina kindik dabbalar mavjud buzoqlarda kindik sepsisi bo'lishi mumkin, bu boshqa organlarning nuqsonlari bilan bog'liq holda keshadi.[8].

Kindik dabbasini davolashta tug‘ma yoki ortirilganligi haqida malumotga ega bo‘lish kerak. Shunki tug‘ma dabbalarda bazi hollarda buzoqning ona qornida rivojlanishi davomida kindik dabba haltasiga ishki organlarning (ichak) yopishgan holati guzatiladi.

Kindik churrasi kishik bo‘lgan hollarda konservativ davolaniladi. Qorin va kindik atrofi muskullarining rivojlanishi va mustahkamlanishiga yordam beradigan massaj qilinadi. Ishki organlar dabba xaltasiga tushib ketishining oldini olish uchun kindik sohasiga yopishtiruvchi plitka shaklidagi bandaj qo‘llaniladi. Agar bu usul yordam bermasa opertiv davolash qo‘llaniladi [2,3].

Buzoqlarda kindik dabbasi jarrohlik yo'li bilan tuzatish asosan ikkita usul, ya'ni herniorrafiya va hernioplastika orqali amalga oshirilishi mumkin. Ochiq herniorrafiya veterinariya davolashning eng keng tarqalgan usuli bo'lsa-da, gerniorrafiyadan keyin takrorlanish uchraydi va yil davomida kuzatiladi [9]. Veterinariya ilimiy izlanuvchilari bugungi kunda hernioplastika usulini takomillashtirish ustida ilimiy ishlar olib bormoqtalar.

1-jadval

Tajriba guruhlari va davolash sxemasi

№	Gruhlari	Buzoqlar soni	Davolash sxemasi
---	----------	---------------	------------------

1.	Birinshi tajriba	3	Xirurgik davolash	1.Seftraksion 5g antibiotik muskulga. 2.Furatsilin 1:5000 choklangan joyga ishlov berish 3. 5% li yod eritmasi choklangan joyga surkash.
2.	Ikkinshi tajriba	3	Xirurgik davolash	1.Gentamitsin 4g antibiotik muskulga. 2.Betadin 1:1000 choklangan joyga ishlov berish. 3. 5% li yod eritmasi choklangan joyga surkash.

Birinshi tajriba guruhidagi kindik dabbasi bilan kasallangan buzoqlarga daslab xirurgik davolash o'tkazildi va davolashdan keyin 5 kun davomida 5g seftraksion (5 ml novakain bilan birgalikta) antibiotigi muskulga kuniga ikki mahal, choklangan joyga kuniga bir mahal 1:5000 furatsilin, ikki mahal 5% li yod eritmasi qo'llanildi.

Ikkinchi tajriba guruhimizdagi kindik dabbasi bilan kasallangan buzoqlarga daslab xirurgik davolash o'tkazildi va davolashdan keyin 5 kun davomida 4g gentamitsin antibiotigi muskulga kuniga ikki mahal, choklangan joyga kuniga bir mahal 1:1000 betadin, ikki mahal 5% li yod eritmasi qo'llanildi.

Tajribalarimizda davolash ikkita guruh orasidagi farq 2-3 kunni tashkil qildi. Birinshi tajriba guruhimizdagi buzoqlar terisidagi choklar 13-14 kunda olib tashlandi, ikkinshi tajriba guruhimizdagi buzoqlar terisidagi choklar 11-12 kunni tashkil qildi. Bunda ko'rinib turganidek kindik dabbasi bilan kasallangan buzoqlarni xirurgik davolashtan keyingi qilinadigan molajalar muhim ahamiyatga ega.

Xulosalar. Kindik dabbasi bilan kasallangan buzoqlar osish va rivojlanishdan orqada qoladi, shuning uchun davolash ishlari ertaroq olib borilsa maqsatga muvofiq bo'ladi. Buzoqlarda kindik dabbasini davolashda dabbaning katta yoki kishikligiga, tug'ma yoki orttirilganliga alohida itibor qaratish kerak. Kindik dabbasi bilan kasallangan buzoqlarni xirurgik davolash muhim ahamiyatga ega bo'lib, choklarning olib tashlanishi vaqti xirurgik davolashtan keyingi mulajalarga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Awad DC, Luis MC, Omar AC, Andrea AC, Benjamin, TH. Comparison of Tran's umbilical approach vs. infraumbilical incision for repair of umbilical hernia in adults. Volume, 2008; 80(2):117-121.

2. Brown CN, Finch JG (2010) [Which mesh for hernia repair?](#) Ann R Coll Surg Engl 92:272-278. [\[Crossref\]](#) [\[Google Scholar\]](#) [\[PubMed\]](#)

3. Dennis SM. Leipold DG, Congenital hernia in calves. Journal of American Veterinary Medicine. Association, 1997; 152, 999-1003.

4. Doijode V (2019) Umbilical hernia in ruminant calves: A review. Pharma Innovation J 8:164-167. [\[Google Scholar\]](#)

5. Gilbert RO. Fubini A, Surgical management of specific condition in farm animal surgery. Saunders. St. Louis. 2004; 335-361.

6. Магда И.И. Иткин Б.З. Воронин И.И. Пономаренко Е.Н. Фоменко Г.Н. Оперативная хирургия/Москва: Агропромизат, 1990-йил.

7. Rings DM, Umbilical hernias, umbilical abscesses, and urachal fistulas. Surgical considerations. Veterinary clinics of North America, Food Animal Practactice 1995; 11(1):137-148.

8. Steenholdt C. Hernandez H, Risk factors for umbilical hernia in Holstein heifers during the first two months after birth. Journal of American Veterinary Medicine Association, 2004; 224:431-437.

9. Sutradhar BC, Hossain MF, Das BC, Kim G, Hossain MA (2009) [Comparison between open and closed methods of herniorrhaphy in calves affected with umbilical hernia](#). J Vet Sc 10:343-347. [[Crossref](#)] [[Google Scholar](#)] [[PubMed](#)]

10. N. Daulatbaev; U. Shakilov. CHANGES IN POSTNATAL ONTOGENESIS OF TURKEYS. Res. Jou. Ana.Inv. 2024, 5, 1-4.

TAWIQLARDIŇ ARGAS PERSICUS KENESI

Yeshanova T¹, Pulotov F.S².

¹Samarqand mámleketlik veterinariya medicinası, sharwashılıq hám biotexnologiyalar universiteti Nókis filiali

²Veterinariya ilmiy tadqiqot instituti

Annotatsiya. Maqalada tawıqlar arasında eń kóp ushraytuđın ektoparazitlerden *Argas persicus* kenesiniń tarqalıwı, morfologiyası, rawajlanıw ciklı, patogenezini hám olar tárepinen jetkizetuđın zıyanlari haqqında ilimiy ádebiyat analizleri tiykarında tolıq mađlıwmatlar keltirilgen.

Summary. The article provides detailed information on the distribution, morphology, development cycle, pathogenesis and damage caused by *Argas persicus* mite from the most common ectoparasites among chickens based on scientific literature analysis.

Gilt sózler. *Argas persicus*, dinamika, intensiv, ekstensiv, ektoparazit, imago, lichinka, nimfa, patogenez, qus spiroxetozi.

Kirisiw. Házirgi waqıtta, awıl xojalıđı sistemasında qushılıq jetekshi tarmaqlardan biri esaplanadı. Bul taraw ekologiyalıq tárepten taza hám sapalı tawıq góshi hám odan tayarlanatuđın dietaliq gósh ónimleri, máyek hám pár islep shıđarıw múmkinshiligin beredi. Dúnya xalqınıń san tárepten asıp barıwı menen bir waqıtta gósh ónimleri jetistiriw hám tutınıwı boyınsha qus góshi ekinshi orında turadı. Biraq, keyingi jillarda bul tarawdı rawajlandırıwda qus arasında ektoparazitler, ásirese *Argas persicus* kenesiniń keń ushrap atırđanlıđı olardıń ónimdarlıđın asırıw hám de xalıqtı sapalı hám ekologiyalıq taza tawıq ónimlerine bolđan talabın qandıırıw sıyaqlı aktual mashqalalardı sheshiwde tosqnılıq etip, qushılıq tarawına sezilerli dárejede ekonomikalıq zıyan jetkizip atır.

Joqarıdağılardı esapqa alđan halda, tawıqlar arasında *Argas persicus* kenesiniń tarqalıwın úyreniw, olarđa qarsı gúresiw usılların jetilistiriw hám házirgi zamanđa sáykes keletuđın ilajlar sistemasın islep shıđıwdı talap etiledi.